

**TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV ULUG‘BEK XAKIMOVICH

**BINAR MIKROTO‘LDIRGICHI ASOSIDAGI MODIFIKATSIYALANGAN
BETONLARNING STRUKTURASI VA XOSSALARI**

05.09.05 – “Qurilish materiallari va buyumlari”

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Abdullayev Ulug‘bek Hakimovich

Бинар микрото‘ldirgichi asosidagi modifikatsiyalangan betonlarning
strukturasi va xossalari 3

Абдуллаев Улугбек Хакимович

Структура и свойства модифицированных бетонов с бинарным
наполнителем..... 21

Abdullaev Ulugbek Khakimovich

Structure and properties of modified concretes with binary filler
..... 39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.15/31.08.2022.T.73.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI

ABDULLAYEV ULUG‘BEK XAKIMOVICH

BINAR MIKROTO‘LDIRGICHI ASOSIDAGI MODIFIKATSIYALANGAN
BETONLARNING STRUKTURASI VA XOSSALARI

05.09.05 – “Qurilish materiallari va buyumlari”

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T2329 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat transport universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tstu.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Adilxodjayev Anvar Ishanovich**
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Hasanov Bahriddin Baratovich**
texnika fanlari doktori, professor

Ilyasov Allanazar Torexanovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor

Yetakchi tashkilot: **Jizzax politexnika instituti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat transport universiteti huzuridagi DSc.15/31.08.2022.T.73.04 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «__» _____ soat __ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy.

Tel.: (99871) 299-00-01; faks: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tstu@exat.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat transport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100167, Toshkent, Temiryo‘lchilar ko‘chasi, 1-uy. Tel.: (99871) 299-05-66.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2023 yil «__» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

S.S. Shaumarov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi o‘rinbosari,
t.f.d., professor

U.Z. Shermuhamedov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
t.f.d., professor

A.A. Ishanxodjayev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda qurilish sanoatini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ekologik toza texnologiyalardan foydalangan holda energiya sarfini sezilarli darajada kamaytirishga va an'anaviy qurilish materiallariga muqobil bo'lgan innovatsion ishlanmalarni ishlab chiqarishga joriy etish eng muhim masalalardan hisoblanadi.

Dunyoda sement sanoatida energiya sarfi past va asosiy bog'lovchiga muqobil bo'lgan kompozit bog'lovchilarni ishlab chiqarish istiqbolli yo'nalish bo'lib, chunki bu nafaqat energiya iste'molini kamaytirish va atmosferaga CO₂ gazi emissiyasini kamaytirish, balki ularning turli funksional xossalarga ega sement kompozitlarini olish bilan ham bog'liq. Qurilish materiallari sanoatida mamlakatimizda ishlab chiqilgan "yashil beton" konsepsiyasi asosida, portlandsement klinkeri iste'molini kamaytirishda sanoat chiqindilaridan foydalanish va yaxshilangan fizik-mexanik, kimyoviy va reotexnologik xossalarga ega betonlarni olish maqsadida qurilishni modernizatsiya qilishning dolzarb masalalari amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, binar mikroto'ldirgichlaridan foydalanishga katta urg'u berilayotgani alohida ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda jadal sur'atlarda rivojlanayotgan qurilish sanoati sohasida yuqori samarali kimyoviy qo'shimchalar va mineral mikroto'ldirgichlarni ularning tarkibiga kiritish orqali ishlab chiqarilayotgan beton va temir-beton konstruksiyalar tannarxini pasaytirish, shuningdek barpo etilayotgan bino va inshootlarning ishonchliligini oshirish va sement betonlarining sifatini va xossalarni yaxshilash masalalarida muhim natijalarga erishildi. Shu bilan birga, beton va temir-beton konstruksiyalar sifatini yanada oshirishga, korroziyaga chidamli kompozitsiyalarni ishlab chiqishga va yuqori mustahkamlik ko'rsatkichlariga erishish orqali ularning massasini kamaytirish hamda seysmik barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish talab etiladi. "Yangi O'zbekistonni 2022-2026-yillarda rivojlantirish strategiyasi"da "...“Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko'rsilsin..."¹ vazifasi belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududlarida ishlab chiqarilayotgan ko'plab sanoat chiqindilaridan foydalangan holda modifikatsiyalangan betonlarni ishlab chiqish bo'yicha ishlar jadal olib borilmoqda. Ushbu vazifalarni amalga oshirishning muhim masalalaridan biri yuqori sifatli va uzoqqa chidamli "kvarts+karbonat" tizimiga asoslangan turli xil tabiatdagi binar mikroto'ldirgichlardan foydalangan holda korroziyaga chidamli konstruksiyalar va buyumlarni ishlab chiqarish uchun mavjud texnologiyalarni yaratish va takomillashtirishdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27-noyabrdagi PF-6119-sonli "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son "2022-2026 yillarda yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

innovatsion rivojlantirishning 2021 — 2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019 yil 23-maydagi PF-4335-sonli "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlarida nazarda tutilgan va qurilish sanoati bilan bog'liq boshqa vazifalarni bajarishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II."Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Sement tizimlarida materiallar va energiya sarfini kamaytirish, shuningdek ularning xossalarini yaxshilash muammosida betonni mineral moddalar bilan modifikatsiyalash bo'yicha tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Bunday qo'shimchalarni ko'p komponentli yuqori sifatli betonlarda qo'llash asoslarini taniqli xorijiy olimlar V.I. Solomatov, G.I. Gorchakov, Yu.M. Bajenov, L.I. Dvorkin, P.G. Komoxov, A.V. Voljenskiy, Yu.M. Butt, I.A. Ribyev, B.V. Gusev, E. Freysine, A.A. Afanasev, N.B. Ur'ev, S.M. Mchedlov-Petrosyan, V.G. Batrakov, V.N. Virovov, A.G. Komar, A.S. Panteleyev, V.T. Erofeyev, V.I. Kalashnikov, V.I. Kondrashenko, T.I. Petrova, S.V. Shestoporov, A.E. Sheykin, P. A. Rebinder, V.G. Batrakov, V.B. Ratinov, A.V. Usherov-Marshak, V.S. Ramachandran, B.R. Falikman, V.M. Kolbasov, S.M. Royak, V.V. Timashev, T.V. Kuznesova, M. Venyua, X. Teylor, M. Regur, M. Kolleparadi, R. Kondo, D. Roy, K. Xattorn, M. Daymon, R. Fere, G. Hintze, F. Loher, T. Thorvaldson, F.J. Hogan, L.U. Spellman, A. Walter, H. Uchikawa, Sh. Hanehara, F. Lallard, T.S. Do, A. Durecovic, S. Sarcar, I. Older, V. Yogendran, P. Aitchin, M. Cheurexu, E.G. Deharrard, V. Mechtherine, P.T. Santhosh, M. Schmidt, P. Kleingelhöfer, D. Frank, K. Fridemenn, P. Richard, M. Chentern, P.Y. Blais, C. Danrioc, A.S. Belardi, K.K. Sideris, E. Guneyisi, M. Fenollera, L. Garcia, P. Richard, G. Edward, M. Buil va boshqa taniqli xorijiy olimlar asos solganlar.

O'zbekiston Respublikasida turli yillarda ko'p komponentli yuqori sifatli beton texnologiyasida mineral mikroto'ldirgichlardan foydalanish sohasidagi tadqiqotlar A.I. Adilxodjayev, A.A. Tulaganov, E.U. Qosimov, M.K. Taxirov, N.A. Samigov, B.B. Hasanov, V.M. Soy, I.M. Mahamataliyev, K.S. Umarov va boshqa yetuk olimlar tomonidan olib borilgan.

Avval o'tkazilgan tadqiqotlarda M400 markali oddiy portlandsement va "kvarts+karbonat" asosidagi binar mikroto'ldirgichidan foydalangan holda betonlarning sifati va uzoqqa bardoshlilikini va sement toshining korroziyaga chidamliligini oshirish masalalari yetarlicha ko'rib chiqilmagan.

O'rganish jarayonida aniqlangan nazariy va eksperimental tadqiqotlar natijasida mahalliy xomashyo va oddiy M400 portlandsementidan foydalanib, yuqori sifatli va uzoqqa chidamli, shuningdek, agressiv muhitga chidamli betonlarni olish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

Dissertasiya tadqiqotining dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertasiya tadqiqoti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti ilmiy-tadqiqot ishi

№ ББ-Ф4-04 "Kompozision materiallarning polistrukturali nazariyasi asosida ko'p komponentli yuqori sifatli betonlar tarkibini optimallashtirish va xossalarini bashorat qilish" (2018-2020) mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi turli tabiatli kul uchqindisi va ohaktosh asosidagi binar mikroto'ldirgichni qo'llash yo'li bilan ekspluatatsion xossalari yaxshilangan o'ta yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyabardosh beton olishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

M400 portlandsementi va binar mikroto'ldirgichi asosida yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyabardosh betonlarni ishlab chiqarish imkoniyatini asoslash;

turli tabiatli binar mikroto'ldirgichi asosida modifikatsiyalangan sement toshining strukturasi shakllanishi xususiyatlarini o'rganish;

kul uchqindisi va ohaktosh kukuniga asoslangan mineral qo'shimchalarning beton aralashmasi va betonning texnologik, fizik-mexanik va kimyoviy xossalariga ta'sirini o'rganish;

tadqiqot natijalarini texnik-iqtisodiy asoslash va ishlab chiqarishda aprobatsiyadan o'tkazish.

Tadqiqotning obyeksi sifatida turli tabiatli qo'shimchalardan tashkil topgan binar mikroto'ldirgich asosidagi modifikatsiyalangan betonlar olingan.

Tadqiqotning predmeti sifatida kul uchqindisi va ohaktoshga asoslangan binar mikroto'ldirgichidan foydalangan holda ishlab chiqarilgan betonlarning optimal tarkiblari strukturasi shakllanish qonuniyatlarini o'rganish va fizik-mexanik, kimyoviy va texnologik parametrlari olingan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil usullaridan, betonning sifat ko'rsatkichlari va xossalarini o'rganishning standartlashtirilgan usullaridan hamda qorishma tarkibini optimallashtirishning matematik usullaridan va eksperimentlar natijalarini statistik tahlil qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

minimal bog'lovchi iste'moli bilan M400 oddiy portlandsementi asosida yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyabardosh betonlarni olish imkoniyati, IES kul uchqindisi va ohak asosidagi binar mikroto'ldiruvchning potensial faolligini hisobga olgan holda asoslandi;

belgilangan texnologik va ekspluatatsion ko'rsatkichga ega bo'lgan kompozitlarni olish imkoniyati va ularning struktura shakllanish jarayoniga, binar mikroto'ldirgichning yo'naltirilgan ta'siri isbotlandi;

ohaktoshni sementli bog'lovchi tarkibidagi gipsni 1,5 % gacha kamaytirish hisobiga qotishini sekinlashtiruvchi sifatida qo'llanilishi ettrenqit va taumasit minerallarining hosil bo'lishini sezilarli qisqartirish imkoniyatlarini berishi va shuning evaziga sementli kompozitning sulfatli korroziyaga qarshi chidamliligi ortishini ta'minlashi aniqlandi;

binar mikroto'ldirgich tarkibidagi ohaktoshning mavjudligi sement toshining uzluksiz g'ovaklarini kolmatatsiya qilinishi uning o'tkazuvchanligini bartaraf qilinishiga olib kelishi va bundan tashqari amorf kremniy oksidining kalsiy gidroksidini to'la bog'lamasligi hamda muhitning talab etiluvchi pH ko'rsatkichini

ta'minlashi hisobiga karbonizasiyaga va ishqor yuvilinuvchanligiga qarshi turg'unligining ortishiga olib kelishi isbotlandi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyabardosh monolit va yig'ma temir-beton konstruksiyalarni ishlab chiqarishda "kul uchqindisi+ohaktosh" tizimidagi binar mikroto'ldiruvchisi asosida beton qorishmalarining optimal tarkiblari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlar fizik-kimyoviy tahlilning zamonaviy usullari va fizik-mexanik sinovlar, eksperimentni matematik rejalashtirish vositalari va usullari, eksperiment natijasida olingan xulosalarning nazariy qonuniyatlarga muvofiqligi, shuningdek ishlab chiqarish sharoitida aprobatsiyasidan o'tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati "kvarts+karbonat" tizimining binar mikroto'ldirgichi asosidagi sement betonlari strukturasi shakllanish nazariyasi va amaliyotining rivojlanishida muhim o'rin tutishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati mahalliy xom ashyoga asoslangan binar qo'shimchalardan foydalangan holda minimal bog'lovchi sarfi bilan yuqori sifatli, uzoqqa chidamli, korroziyabardosh va talab etilgan xossalar majmuiga ega betonlarni olish bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Binar mikroto'ldirgichi bilan modifikatsiyalangan beton strukturasi shakllanish qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

binar mikroto'ldirgichi va superplastifikatordan foydalanib kompleks-modifikatsiyalangan betonlarning optimal tarkiblari "BINOKOR TEMIRBETON SERVIS" MChJ QK korxonasi joriy qilingan ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasining 2023 yil 12 oktyabrda 05/15-2071-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, B15 sinfli beton uchun yig'ma beton va temir-beton ishlab chiqarishda kompleks qo'shimchalar bilan optimal tarkib va texnologiyalarni joriy etishdan olingan iqtisodiy samaradorlik 1 m³ beton uchun 66 097 so'mni tashkil etdi (2023 yil narxlarida). Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish sement sarfini 1,25 baravar kamaytirish bilan birga, muzlashga bardoshlilikni 1-1,5 baravar va betonning suvga o'tkazmasligini bir markaga oshirishga imkoniyat yaratdi;

"BINOKOR TEMIRBETON SERVIS" MChJ QK korxonasi laboratoriyasida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan texnologik yo'riqnomasi ("Технологическая инструкция ТИ-207103754 - 40:2023 по производству блоков бетонных для стен подвалов по О'z DSt 778-97 из комплексно-модифицированного бетона с бинарным наполнителем") talab etilgan xossalar majmuiga ega buyumlarni ishlab chiqarishni ta'minladi. Kutilayotgan iqtisodiy samarasi 396 mln. so'mni tashkil etadi (2023-yilgi narxlarida).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish, ulardan 12 tasi xorijiy jurnallarda, shu jumladan 1 tasi SCOPUS

bazasida, 5 tasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy jurnallarida chop etilgan. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi tomonidan kompyuter dasturlari uchun 2 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotlarining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotlarning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, O‘zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, tadqiqotlarning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, shuningdek, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo‘yicha lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning holati va tadqiqot vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida sement tizimlarining moddiy va energiya xarajatlarini kamaytirish, shuningdek, kvarts+karbonat tizimiga asoslangan binar mineral modifikatorlar bilan beton strukturasi modifikatsiyalash bo‘yicha tadqiqotlar tahlili keltirilgan bo‘lib, unda kimyoviy modifikatorlar va binar mineral mikroto‘ldirgichlari sement tizimining texnologik va fizik-kimyoviy xossalari ta‘sir mexanizmlarini inobatga olgan holda yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyabardosh betonni loyihalash bilan bog‘liq vazifalar batafsil bayon etilgan.

O‘zbekiston Respublikasida beton texnologiyasida: kul uchqindisi, giltuproq, elektrotermofosfor shlaklari, bazalt, barxan qumlari, mis sanoati chiqindilari, seolit tog‘ jinslari, ohaktosh va shu kabi mineral mikroto‘ldirgichlar keng qo‘llanilmoqda. Turli yillarda tadqiqotchilar "yashil beton" olish, ishlab chiqilayotgan kompozitning ekologik, iqtisodiy va resurstejamkorlik jihatlari ta‘minlash uchun kremniy tarkibli sanoat chiqindilaridan foydalanishga ko‘proq e‘tibor qaratish zarurligini ta‘kidlaganlar. Respublikada ko‘p miqdorda kul uchqindisi to‘planib qolgan. Kul uchqindisi mineral mikroto‘ldirgichi asosida ko‘p sonli tadqiqotlar o‘tkazilganiga va turli tarkiblar ishlab chiqarilganiga qaramay, bu qo‘shimchaning sezilarli kamchiliklari tufayli (qorishmaning suv talabchanligini oshirishi, g‘ovak suyuqligining ishqoriyligini pasaytirishi natijasida karbonizatsiya korroziyasi jarayonini tezlashtirishi va natijada armaturaning korroziyasi yuzaga kelishi, doimiy kimyoviy tarkibga ega emasligi va boshqalar) hozirgi vaqtda bunday qo‘shimchani beton texnologiyasida sof shaklda keng qo‘llash chegaralanmoqda. Istiqbolli qo‘shimcha sifatida ohaktoshni ham e‘tirof etish kerak – bu gidratatsiya jarayonlarining kechishini kuchaytirishi, qorishmaning suvga bo‘lgan ehtiyojini kamaytirishi va eng muhimi, g‘ovak bo‘shlig‘ini komatatsiyalash va shu kabi xususiyatlari bilan izohlanadi. Ushbu qo‘shimchalarning toza va alohida shaklda keng miqyosda sement toshi tarkibida qo‘llanilishi cheklanmoqda, sababi, bog‘lovchi tarkibida gips bilan reaksiyaga kirishishi natijasida "kechki" ettringit va taumasit minerallarining paydo bo‘lishi

kuzatilganligi sababli, kompozitning sulfatga chidamliligining keskin pasayishiga olib keladi. "Kvarts+karbonat" sistemasi asosidagi qo'shimchalardan binar mikroto'ldirgichi sifatida foydalanish ishlab chiqilayotgan materialning uzoqqa chidamliligi va korroziyabardoshliligi masalalarini to'liq hal qilish imkonini bermadi. Shuning uchun yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyabardosh betonlarni ishlab chiqish uchun "kul uchqindisi+ohaktosh" asosidagi binar mikroto'ldirgichlari yordamida sement kompozitlarini ishlab chiqish uchun maqbul yechimlarni topish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni kuchaytirish talab etiladi.

Adabiyotlar sharhi asosida dissertatsiya ishining ishchi gipotezasi shakllantirildi, shuningdek tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olindi.

Ishchi gipoteza. Binar mikroto'ldirgichi asosida modifikatsiyalangan sement tizimida sodir bo'ladigan fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirlar haqidagi zamonaviy g'oyalarga asoslanib, bir tomondan ohaktoshni katta g'ovaklarni kolmatatsiyalovchi, sement toshining o'tkazuvchanligini pasaytiruvchi va bog'lovchining qotish jarayonini sekinlashtiruvchi qo'shimcha sifatida va boshqa tomondan kul uchqindisini gidratasiya jarayonlarini kechishiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi qo'shimcha sifatida ko'rib chiqilishi talab etilgan xossalar majmuiga ega bo'lgan yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyabardosh betonlarni optimal tarkiblarining ishlab chiqilishi faraz qilinadi.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot usullari va foydalanilgan materiallar**" deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqotlarda qo'llanilgan materiallarning fizik-mexanik va kimyoviy xossalari, shuningdek, laboratoriya uskunalarning texnik ko'rsatkichlari, binar mikroto'ldirgichi asosidagi yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyaga bardoshli betonlarni tadqiq qilish usullari batafsil bayon etilgan. Dissertatsiya ishida "Ohangaronsement" zavodining CEMI 32.5H markali portlandsementi bog'lovchi, Yangi Angren IES kul uchqindisi hamda ohaktosh (Muruntov koni) mayda dispersli mikroto'ldirgich va ARMENT CONSTRUCTION CHEMICALS korxonasining yangi avlod yuqori samarali polikarboksilat efirlari asosidagi POLIMIX superplastifikatori kimyoviy qo'shimcha sifatida ishlatilgan.


Dissertatsiyaning maqsad va vazifalari asosida tadqiqot usullari asoslanadi va tanlanadi. Tadqiqotlarda qurilish materiallarini standart sinovdan o'tkazishning usullari, shuningdek, matematik-regressiya va matematik-statistik usullar qo'llanilgan. Bundan tashqari, tadqiqotlarda beton qorishmalari tarkibini optimallashtirish uchun eksperimentlarni rejalashtirishning matematik usuli qo'llanilgan: "Turli tabiatli mikroto'ldirgichlar asosida betonning fizik-mexanik parametrlarini aniqlash" va "Turli tabiatli mikroto'ldirgichlar asosida beton tarkibini optimallashtirish".

Dissertatsiyaning "**Binar mikroto'ldirgichi asosidagi qo'shimchalarning sement bog'lovchisining strukturasi va xossalariga ta'siri**" deb nomlangan uchinchi bobida binar mikroto'ldirgichlaridan foydalangan holda kompozit sement bog'lovchilarining strukturasi va xossalarini ishlab chiqish va optimallashtirish, ohaktoshni mexanik faollashtirish hamda maydalash, sement pastalarining suv talabchanligi va qotish muddati, modifikatsiyalangan qorishmalarning suv ajratish va qotish jarayonida kirishishdan hosil bo'luvchi deformatsiyalar, sement toshining

g'ovakliligi va mustahkamligi, ishlab chiqilayotgan kompozitning korroziyaga bardoshligi va boshqa shu kabi eksperimental tadqiqotlar natijalariga bag'ishlangan.

Ohaktoshni maydalash bo'yicha olingan tajriba natijalari 1-rasmda keltirilgan.

Ohaktoshni maydalash IIIJM-100 markali sharli tegirmonning zarba-yedirilish rejimida amalga oshirildi. Olingan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, materialni 80 daqiqa davomida maydalash nisbiy sirt yuzasining 3100 sm²/g qiymatiga yetishini ta'minlaydi. Shu bilan birga, zarrachalarning o'rtacha diametri 13,1 dan 6,2 mikrongacha kamayadi. 50 daqiqa davomida maydalangan kukunning 008-sonli elakdagi qoldig'i 63,1 % dan 19,2 % gacha kamayishi kuzatildi. Mexanik faollashtirishning 60-daqiqasiga kelib, 008-sonli elakdagi qoldiq 19,2 % dan 27,2 % gacha oshgani aniqlandi va zarrachalar agregatsiyasi jarayonining boshlanishi kuzatildi hamda bu holatda maydalash jarayonini davom ettirish samarasiz hisoblanadi.




1-rasm. Sharli tegirmonning zarbli-yedirilish rejimida ohaktoshni mexanik faollashtirishning nisbiy sirt yuzasiga (1), zarrachalar o'rtacha diametrining o'zgarishiga (2), shuningdek maydalash davomiyligining agregatsiya hodisasiga (3) ta'siri


Portlandsementdan suvning ajralishi ko'p jihatdan klinkerning mineralogik va granulometrik tarkibiga, shuningdek nisbiy sirt yuzasiga bog'liq. Yuqoridagilarga asoslanib, tadqiq etilayotgan tarkiblarning suv ajralishini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar o'tkazildi.

Sementga 25 % miqdorida kul uchqindisini kiritish qo'shimchasiz tarkibga nisbatan suv ajralishining 14 % ga oshishiga olib keldi. Sementning bir qismini ohaktosh kukuni (OK) bilan almashtirish ushbu ko'rsatkichning etalon tarkibiga nisbatan 7 % ga pasayishini ta'minladi (2-rasm). Bu ohaktoshning plastifikashtiruvchi ta'siri bilan bog'liq bo'lib, o'z navbatida sement tizimining suvni ushlab turish qobiliyatini oshiradi.

Sement toshining qattiqlashuvi jarayonida uning hajmiy o'zgarishlari va chiziqli kirishishi sodir bo'ladi. Kirishish deformatsiyalari beton sifatining asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, mustahkamlik va korroziyaga bardoshlik kabi xossalari bilan bir qatorda tadqiq etishni talab qiladi (3-rasm).



2-rasm. Tadqiq etilayotgan tarkiblarning suv ajralish ko'rsatkichi (1-etalon tarkib; 2-PS 75 %+KU 25 %; 3-PS 75 %+KU 10 %+OK 15%)



3-rasm. Tadqiq etilayotgan tarkiblarning kirishish deformatsiyasi ko'rsatkichi (1-etalon tarkib; 2-PS 75 %+KU 25 %; 3-PS 75 %+KU 10 %+OK 15%)

Normal qotish sharoitida saqlangan 28 sutkalik namunalarning kirishish deformatsiyalari bo'yicha olingan tadqiqot natijalarida 10 % KU va 15 % OK dan iborat bo'lgan modifikatsiyalangan tarkibdagi kirishish qiymati nazorat tarkibiga nisbatan 40 % ga va 2-tarkibga nisbatan 25 % ga kamaygani aniqlandi va bu tarkiblar orasida eng yaxshi ko'rsatkich hisoblanadi.

Uchinchi bobda namunalarning g'ovak tuzilishi ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari ham keltirilgan.


Tajribalar davomida uch turdagi tarkiblar batafsil o'rganildi: №1 – faqat sementdan iborat nazorat tarkibi; №2 - PS 75 %+KU 25 %; №3-PS 75 %+KU 10 %+OK 15 %.

Tadqiq qilinayotgan sement toshi namunalari umumiy g'ovaklarining o'lchamlari bo'yicha taqsimlanishi (differensial g'ovaklilik) va g'ovaklarning nisbiy hajmi (integral g'ovaklilik) 4-rasmda keltirilgan.

G'ovaklarning o'lchamlari bo'yicha taqsimlanish natijalarini tahlil qilish modifikatorlarning (2- va 3-tarkiblar) bog'lovchi tarkibga kiritilishi umumiy va integral g'ovaklilikning nazorat namunasiga nisbatan 11,23 % (2-tarkib) va 14,41 % (3-tarkib) pasayishiga olib kelishini ko'rsatdi (5-rasm).

Shuningdek, bog'lovchining binar mikroto'ldirgichi bilan modifikatsiyasi etalon tarkibiga nisbatan mikroto'ldirgichni kamaytirishga yordam berganligi aniqlandi (2-tarkib 3,2 % ga va 3-tarkib 3 % ga). O'z navbatida mikro- va ultrag'ovaklar soni ortdi (2-tarkib 3,6 % ga va 3-tarkib 15,02 % ga).

Olingan ma'lumotlar 3-tarkibda dastlabki qotish davrida g'ovaklarning konfiguratsiyasi va shakli o'zgarganini ko'rsatdi. 2- va 3-tarkiblar g'ovaklilikning nisbiy hajm ko'rsatkichlarini tahlili natijasida nazorat tarkibiga nisbatan g'ovaklar hajmi mos ravishda 32 % dan 27 % gacha va 33 % dan 28 % gacha pasaygani aniqlandi.



4-rasm. Tadqiq etilayotgan 28 sutkalik tarkiblarning umumiy g‘ovakliligi va nisbiy hajmi (1-etalon tarkib; 2-PS 75 % + KU 25 %; 3-PS 75% + KU 10 % + OK 15 %)

Olingan g‘ovaklilikka doir ma’lumotlar tahlili asosida aniqlanishicha, bunda 3-sonli tarkibga ohaktoshning kiritilishi natijasida kolmatatsion jarayon yuzaga keladi va katta g‘ovaklar soni sezilarli darajada kamayadi hamda gelsimon g‘ovaklari soni ortadi, bu esa kompozit o‘tkazuvchanligining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Sement toshining g‘ovak tuzilishini turli xil qo‘shimchalar bilan taqqoslash, makro-, mezo- va mikrokapilyarlar sonini kamaytirish, sement toshining gidratsiya darajasi va mustahkamligini oshirish nuqtai nazaridan eng maqbuli binar mikroto‘ldirgichi bilan modifikatsiyalangan tarkib ekanligini ko‘rsatadi.

Kalsiy gidroksid ishqorining etalon va modifikatsiyalangan tarkiblardan yuvilishi bo‘yicha tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval


Tadqiq qilinayotgan namunalarning ishqor yuvilishi korroziyasi ko‘rsatkichlari

Tarkiblar	Distillangan suvda ishqorning yuvilishi, mg/l	Karbonat anhidrid eritmasida (0,5 %) ishqorning yuvilishi, mg/l
Nazorat tarkibi	1350	981
KU (25 %) bilan modifikatsiyalangan tarkib	875	705
Binar mikroto‘ldirgich bilan modifikatsiyalangan tarkib	860	640

Yuqoridagi natijalardan ko‘rinib turibdiki, binar mikroto‘ldirgichi asosidagi modifikatsiyalangan tarkib ishqor yuvilishi korroziyasiga qarshi yuqori qarshilikka ega.

28 sutka davomida normal sharoitda saqlangan sement toshining karbonizatsiyalanish tezligi va darajasini aniqlash majburiy karbonizatsiyalanish usuli yordamida o‘rganildi (5-rasm). 2-sonli tarkibni majburiy karbonizatsiyalanish 1 gramm klinker uchun 395 mg CO₂ ni bog‘laydi. 2-modifikatsiyalangan tarkibning karbonizatsiyalanish darajasi 76,5 % ni tashkil etdi. Binar mikroto‘ldirgichi yordamida modifikatsiyalangan tarkibning 1 gramm sementda 285 mg CO₂ majburiy karbonizatsiyalanish orqali bog‘lanadi. 1 va 3-sonli tarkiblarning karbonatlanish darajasi mos ravishda 57,0 % va 56,8 % ni tashkil etdi. 3-sonli tarkibning karbonizatsiyalanishga qarshiligining oshishi tizimga cheklangan

miqdordagi KU ning kiritilishi va bu holatda ma'lum darajada birikmagan kaltsiy gidrooksidlari zaxirasining saqlanib qolishi bilan bog'liq bo'lib, ular talab etilgan pH muhitning zarur ko'rsatkichlarini ta'minlaydi.



5-rasm. O'rganilayotgan tarkiblarning karbonizatsiyalanish kinetikasi (1-etalon tarkib; 2-PS 75 % + KU 25 %; 3-PS 75 % + KU 10 % + OK 15 %)

O'rganilayotgan tarkiblarning sulfatli muhitga chidamliligini aniqlash uchun B.G. Skramtayev tomonidan taklif qilingan tezlashtirilgan usul qo'llanildi.

2-jadval

Tadqiqot namunalarining sulfatli muhitga chidamliligi

Tarkiblar	Namunalarning deformatsiyalanishi, mm/m					Yemirilishdan oldingi davrlar soni
	3 ta davr	6 ta davr	9 ta davr	12 ta davr	Yemirilishdan oldingi deformatsiya	
Nazorat tarkibi	0.16	0.22	1.65	-	5.62	9
KU (25 %) bilan modifikatsiyalangan tarkib	0.13	0.25	1.52	3.23	5.38	15
Binar mikroto'ldirgich bilan modifikatsiyalangan tarkib	0.08	0.18	0.62	1.25	3.22	21


Sinovdan o'tgan namunalar chiziqli deformatsiyalarning bir tekis o'sishi bilan ajralib turdi. Davrlar sonining ko'payishi bilan 2-sonli kompozitsiya uchun deformatsiyalarning to'liq yemirilishgacha bo'lgan maksimal qiymati 5,38 mm/m, binar mikroto'ldirgichli tarkib uchun – 3,22 mm/m ni tashkil etdi. 3-sonli tarkibning sulfatga bardoshliligi ortishi, fikrimizcha, ettringit va taumasit hosil bo'lishiga xizmat qiladigan gips toshining kamayishi bilan, bundan tashqari, sement toshi g'ovaklarining OK mahsulotlari bilan to'ldirilishi orqali o'tkazuvchanlikning keskin pasayishi bilan bog'liq.

Strukturaviy tadqiqotlar-tarkiblarini rentgen fazali va differensial termik tahlillar natijalari ko'rsatishicha, sement toshining modifikatsiyalangan qo'shimchali tarkiblar mustahkamligi ortishi bilan, etalon tarkibidan farqli o'laroq,

erkin portlandit $\text{Ca}(\text{OH})_2$ cho'qqilarining intensivligi kamaydi va kaltsiy gidrosilikat (CSH) cho'qqilarining intensivligi oshdi (6- va 7-rasm).

Nazorat namunasining derivatogrammasida endoeffektning birinchi cho'qqisi 109°C da kuzatildi. Erkin bog'langan suv yo'qotilishi tufayli massaning kamayishi 8,63 % ni tashkil etdi. Loyiha yoshidagi 2- va 3 - tarkiblarda endoeffektlar mos ravishda $97-104$ va $99-103-120^\circ\text{C}$ oralig'ida namoyon bo'ldi.

Amorf kremniyning yuqori pussolan faolligi tufayli KU kiritilishi natijasida portlanditning diffraksiyon chiziqlari intensivligi sezilarli darajada pasayganligi aniqlandi ($\text{C}_2\text{S}_2\text{H}$ - $d/n=2,09; 1,82; 1,76 \cdot 10^{-10}\text{m}$; CSH(B) - $d/n=3,02; 2,8; 1,83 \cdot 10^{-10}\text{m}$; $\text{C}_3\text{S}_2\text{H}_3$ - $d/n=1,92; 1,87; 1,69 \cdot 10^{-10}\text{m}$; $\text{C}_3\text{S}_3\text{H}_3$ - $d/n=2,74; 2,35; 1,92 \cdot 10^{-10}\text{m}$).



6-rasm. Tadqiq etilayotgan tarkiblarning derivatogrammasi (1-etalon tarkib; 2-PS 75 % + KU 25 %; 3-PS 75 % + KU 10 % + OK 15 %)

Binar mikroto'ldirgichi yordamida modifikatsiyalangan sement toshining rentgenogrammasida $\text{C}_3\text{S}_2\text{H}_3$ ($d/n=1,924 \cdot 10^{-10}\text{m}$) afilitsimon past asosli gidrosilikatlarning qo'shimcha cho'qqilari ko'paygani aniqlandi.

Rentgenogrammalarda kaltsiy gidroksidi cho'qqilarining eng intensiv pasayishi va kaltsiy gidrosilikatlarining shakllanishi KU qo'shib tayyorlangan tarkibida kuzatilgan. Binar mikroto'ldirgichi qo'llanilgan tarkiblarni fizik-kimyoviy tadqiqotlar ma'lumotlariga ko'ra, taklif etilayotgan tarkiblarning gidratsiya darajasi sezilarli darajada oshganini ko'rsatdi.


Shuni ham ta'kidlash lozimki, fizik-kimyoviy o'zaro ta'sirlar va "sement+kul uchqindisi+ohaktosh" tizimida sodir bo'ladigan o'zgarishlar natijasida portlanditning ma'lum zaxirasi hosil bo'ladi va ettringit hamda taumasit fazadan deyarli yo'qoladi.

Betonning optimal tarkiblari


Beton sinfi	KCh, sm	1 m ³ beton uchun material sarfi (kg)							Beton qorishmasining elastik moduli Eb, MPa	Beton qorishmasining Puasson koeffitsiyenti (μ)
		B	BM	Q	Ch	S	S/B	SP, %		
B15	П5 (>20)	190	64	770	1153	190	0.75	0.8	22	0.23
B20	П5 (>20)	219	74	737	1153	190	0.64	0.8	21	0.25
B30	П5 (>20)	309	103	637	1153	190	0.46	0.8	20	0.26

Sement massasining 0,8 % miqdorida POLIMIX qo‘shimchasini nazorat tarkiblariga kiritish modifikatorning giperplastiklashtiruvchi ta‘hiri tufayli harakatchanligi 20 sm dan ortiq bo‘lgan o‘zi zichlashuvchan beton qorishmalarini olish imkonini beradi.

8- va 9-rasmda binar mineral mikroto‘ldirgichining miqdori va POLIMIX qo‘shimchasining optimal dozasi beton qorishmasi qovushqoqligiga ta‘sirining bog‘liqligi ko‘rsatilgan.



8-rasm. Sement va superplastifikator miqdorining beton qorishmasining qovushqoqligiga ta‘hiri (1,2,3-beton qorishmasi uchun sement iste‘moli, mos ravishda 250, 290 va 410 kg/m³)



9-rasm. Binar modifikator va superplastifikator hamda sement sarfining beton qorishmasining qovushqoqligiga ta‘hiri (1,2,3-sement va binar qo‘shimcha iste‘moli, mos ravishda 190+64, 219+74 va 309+103 kg/m³)

Tadqiqot natijalarining tahlili sement iste‘molining ko‘payishi bilan SP ning sterik ta‘sirining oshishi tufayli beton qorishmasining qovushqoqligi pasayishini ko‘rsatdi. SP 1,2 % dozasi bilan ushbu ko‘rsatkich qo‘shimchalarsiz tarkibga nisbatan 6-7 baravar sezilarli darajada kamayadi. SP 0,8 % iste‘mol qilishda OK ning plastiklashtiruvchi ta‘hiri tufayli binar mineral qo‘shimcha kiritilganida, beton qorishmasining qovushqoqligi nazorat tarkibiga nisbatan 8,5-9 baravar pasayadi.

Beton tarkibini optimallashtirishda quyidagi omillarning ta‘hiri o‘rganildi: X₁ - sement massasidan SP (%)ning sarfi; X₂-sement iste‘moli, kg/m³; X₃-Q/Ch

nisbati (qum/chaqiqtosh). Olingan natijalarni qayta ishlash va regressiya tenglamasining ahamiyatsiz koeffitsiyentlarini olib tashlashdan soʻng, binar qoʻshimcha va SP asosida kompleks qoʻshimchalar bilan betonning siqilishga boʻlgan mustahkamligini tavsiflovchi matematik modellar olindi. Koeffitsiyentlarning maksimal va minimal qiymatlari apriori maʼlumotlar va dastlabki tadqiqotlar asosida betonga boʻlgan texnologik talablardan kelib chiqib, quyidagi formulalar yordamida ifodalangan. Aniqlash parametri sifatida Y_{1-28} sutkalik (R_{siq28}) MPa betonning siqilishga boʻlgan mustahkamligi qabul qilindi.

B15 beton sinfi uchun:

$$Y=22,43-10,49X_1^2-107,68X_3^2-0.015X_1X_2+31,54X_1X_3+0,47X_2X_3;$$

B20 beton sinfi uchun:

$$Y=28,89-12,25X_1^2-158,19X_3^2+29,5X_1X_2+0,51X_2X_3;$$

B30 beton sinfi uchun:

$$Y=36,37-9,3X_1^2-180,04X_3^2+0,016X_1X_2+19,01X_1X_3+0,43X_2X_3;$$

Normal sharoitlarda saqlanganidan soʻng beton mustahkamligining oʻzgarish kinetikasi oʻrganildi (5-jadval). Ushbu regressiya tenglamalarini tahlil qilish natijasida SP qoʻshish normal sharoitda saqlangan beton mustahkamligining oʻsishiga sezilarli taʼsir koʻrsatishi maʼlum boʻldi. Shu bilan birga, nafaqat qotishning barcha davrlarida bogʻlovchi sarfi oʻshishi bilan mustahkamlikning ortishi kuzatiladi, balki etalon uchun oʻzgaruvchan muzlash va eritishga (100-250 davr) qarshilik kuchayadi. Modifikatordan foydalanish ikkilik plomba yordamida optimallashtirilgan kompozitsion asosida olingan betonlarning sovuqqa chidamliligini 1-1,5 baravar oshirishga yordam beradi.

5-jadval

Normal sharoitda saqlangan beton mustahkamligining oʻsishi kinetikasi

Beton tarkibi	Beton sinfi	KCh, sm	Beton mustahkamligi, sutkalar (MPa)					Betonning suv oʻtkazmaslik koʻrsatkichlar, W	Muzlashga bardoshlilik koʻrsatkichlari, F	Elastiklik moduli $E_b \cdot 10^3$ / Puasson koeffitsiyenti
			3	7	14	28	90	Suv bosimi (MPa)	davr	MPa/-
								Betonning suv oʻtkazmaslik markasi	Muzlashga bardoshlilik markasi	
Nazorat	B15	4,0	6,4	11,6	15,8	19,8	26,8	0.4	173	23/0.18
			32	58	79	99	134	W-4	150	
	B20	4,0	7.25	14,7	22	25	32,2	0.6	223	25/0.18
			29	59	88	100	129	W-6	200	
	B30	4,0	12,8	23,2	31,6	40	54	1.0	319	28/0.19
			32	58	79	100	135	W-10	300	
Optimal	B15	4,0	7,8	13,8	18,8	23,8	29	0.4	221	25/0.16
			39	69	94	119	145	W-4	200	
	B20	4,0	7,75	16,7	23,5	26,7	33,2	0.6	251	27/0.16
			31	67	94	107	13	W-6	250	
	B30	4,0	14,4	25,6	35,6	44	59,2	1.0	355	33/0.17
			36	64	89	110	148	W-10	350	

Dissertatsiyasining "**Tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy qilish va texnik-iqtisodiy samaradorligini aniqlash**" deb nomlangan beshinchi bobida tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish keltirilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish "BINOKOR TEMIRBETON SERVIS" MCHJ QK korxonasi amalga oshirildi. Kompleks qo‘shimchani optimal miqdorini beton qorishmalariga kiritish orqali B15 sinfidagi modifikatsiyalangan betonlar olindi va ushbu betonlar asosida ТИ-207103754-40:2023 ga muvofiq ФБС 12.4.6-t markali yerto‘la (podval) devorlarining 48 dona beton bloklari ishlab chiqarildi.

Korxonada yig‘ma beton va temir-beton ishlab chiqarishda kompleks qo‘shimchalar bilan optimal tarkib va texnologiyalarni joriy etishdan olingan iqtisodiy samaradorlik 1 m³ beton uchun 66 097 so‘mni tashkil etdi (2023 yil narxlarida). Kutilayotgan iqtisodiy samara yiliga 2000 dona blok uchun 396 mln. so‘mni (2023 yil narxlarida) tashkil etishi mumkin.

XULOSA

"Binar mikroto‘ldirgichi asosidagi modifikatsiyalangan betonlarning strukturasi va xossalari" mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. Oddiy markali M400 sementi, binar mineral qo‘shimcha va polikarboksilat superplastifikatori asosidagi kompleks qo‘shimchali yuqori sifatli, uzoqqa chidamli va korroziyaga bardoshli betonlarni ishlab chiqarish imkoniyati isbotlangan.
2. Binar qo‘shimcha va polikarboksilat superplastifikatoridan iborat kompleks qo‘shimchani beton qorishmasi tarkibidagi optimal miqdori aniqlandi.
3. Kompleks qo‘shimchadan foydalanish B15, B20, B25 sinfli betonlar uchun 20 sm dan ortiq harakatchalikka ega bo‘lgan o‘zi zichlashuvchan beton qorishmalarini va M400 oddiy markali sementlarida B60 sinfidagi yuqori darajadagi mustahkam beton olish imkonini berdi.
4. Binar mikroto‘ldirgich tarkibidagi ohaktosh kukuni g‘ovaklarni kolmatatsiya qilishi tufayli, kompozitning o‘tkazuvchanligini sezilarli darajada kamaytirishi va betonning ishqor yuvilishi korroziyasiga qarshi chidamliligini oshirishi isbotlandi.
5. Kalsiy gidroksidning amorf kremniy dioksidi bilan to‘liq bog‘lanmaganligi pH muhitining kerakli ko‘rsatkichlarini ta‘minlab, bu esa karbonizatsion korroziyaga qarshi bardoshlilikni oshirishga yordam beradi.
6. Sementning bir qismini binar qo‘shimcha bilan almashtirish gidratatsiyani kuchaytirishi, gidrosilikat fazalarining tarkibini oshirishi va tarkibida gips toshining o‘rniga qotishni sekinlashtiruvchi qo‘shimcha sifatida ohaktoshning qo‘llanilishi ettringit va taumasit minerallarining tarkibida hosil bo‘lishining oldini olishiga va natijada sement kompozitsiyasining sulfat korroziyasiga nisbatan qarshiligini oshirishga yordam beradi.
7. Beton qorishmasining tarkibini optimallashtirishda sement bog‘lovchisining 25 % gacha sezilarli darajada tejalishini ta‘minlash, shuningdek g‘ovak strukturasi konfiguratsiyasini yaxshilash orqali betonning muzlashga

bardoshlilikini 1-1,5 baravar, suv o'tkazmaslik ko'rsatkichini 1 markaga oshirish mumkinligi aniqlandi.

8. B15 beton sinfi uchun "BINOKOR TEMIRBETON SERVIS" MCHJ QK zavodida yig'ma beton va temir-beton ishlab chiqarishda kompleks qo'shimchalar bilan ishlab chiqilgan betonning optimal tarkibini ishlab chiqarish joriy etish natijasidagi iqtisodiy samara 1 m³ betonga 66 097 so'mni tashkil etdi (2023 yil narxlarida). "BINOKOR TEMIRBETON SERVIS" MCHJ QK zavodining ushbu turdagi mahsulotlariga talab barqaror bo'lgan taqdirda kutilayotgan iqtisodiy samara 396 mln. so'mni tashkil etishi mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.15/31.08.2022.Т.73.04 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ТРАНСПОРТНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТРАНСПОРТНЫЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

АБДУЛЛАЕВ УЛУГБЕК ХАКИМОВИЧ

**СТРУКТУРА И СВОЙСТВА МОДИФИЦИРОВАННЫХ БЕТОНОВ
С БИНАРНЫМ НАПОЛНИТЕЛЕМ**

Специальность 05.09.05-«Строительные материалы и изделия»

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам**

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии по техническим наукам (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за В2023.2.PhD/Т2329.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном транспортном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-сайте Научного Совета (www.tstu.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель: **Адилходжаев Анвар Ишанович**
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Хасанов Бахридин Баратович**
доктор технических наук, профессор

Илясов Алланазар Тореханович
кандидат технических наук, профессор

Ведущая организация: **Джизакский политехнический институт**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2023 г. в ____ часов на заседании Научного совета DSc.15/31.08.2022.Т.73.04 при Ташкентском государственном транспортном университете. (Адрес: 100167, г. Ташкент, ул. Темирийўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-00-01; факс: (99871) 293-57-54; e-mail: rektorat@tstu.uz, tstu@exat.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного транспортного университета (регистрационный номер - _____). (Адрес: 100167, Ташкент ул. Темирийўлчилар, 1. Тел.: (99871) 299-05-66).

Автореферат диссертации разослан « ____ » _____ 2023 года.
(протокол реестра № _____ от « ____ » _____ 2023 года).

С.С. Шаумаров

Заместитель председателя научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

У.З. Шермухамедов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

А.А. Ишанхаджаев

Председатель научного семинара при научном совете
по присуждению ученых степеней, д.т.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире на современном этапе развития строительной индустрии приоритетным направлением является внедрение в производство инновационных разработок, направленных на существенное снижение энергозатрат с использованием экологически чистых технологий и обеспечивающих альтернативу традиционным строительным материалам.

В мире цементной промышленности разработка композитных вяжущих с низким энергопотреблением и альтернативой основному вяжущему-цементу является перспективным направлением, так как это связано не только со снижением ресурсопотребления и уменьшением выбросов газа CO₂ в атмосферу, но и с получением цементных композитов с наперед заданным комплексом свойств. В промышленности строительных материалов в соответствие с разработанной в нашей стране концепцией "зеленый бетон" реализуются актуальные вопросы модернизации строительства с целью использования попутных продуктов промышленности и получения бетонов с улучшенными физико-механическими, химическими и реотехнологическими свойствами при снижении потребления портландцементного клинкера. В данном контексте значительное предпочтение отдано использованию бинарных микронаполнителей.

В нашей республике, в сфере развивающейся высокими темпами строительной индустрии были достигнуты существенные результаты в вопросах повышения качества и улучшения свойств цементных бетонов путем введения в их состав высокоэффективных химических добавок и минеральных наполнителей, снижения себестоимости, производимых бетонных и железобетонных конструкций, а также повышения надежности возводимых зданий и сооружений. Вместе с тем, возникает крайняя необходимость в активизации научно-исследовательских работ, направленных на дальнейшее повышение качества бетонных и железобетонных конструкций, разработка коррозионностойких составов и снижения их массы за счет достижения высоких прочностных показателей и сейсмической стойкости. В стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы поставлены такие задачи, как «...принять меры по повышению до 2026 года на 20 процентов энергоэффективности экономики и сокращению на 20 процентов объема выброса вредных газов в атмосферу путем внедрения технологий «зеленой экономики» во все сферы...»². При реализации этих задач интенсивно ведется работа по разработке модифицированных бетонов с использованием большого количества промышленных отходов, образующихся в регионах Республики Узбекистан. Одним из важных вопросов реализации этих задач является создание и совершенствование существующих технологий изготовления высококачественных и долговечных, а именно коррозионностойких конструкций и изделий с

² Указ Президента Республики Узбекистан УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы»

применением бинарных микронаполнителей различной природы на основе системы «кварц+карбонат».

Исследование в определенной степени служит выполнению задач предусмотренных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-6119 от 27 ноября 2020 года «Об утверждении стратегии модернизации, ускоренного и инновационного развития строительной отрасли Республики Узбекистан на 2021-2025 годы», №УП-4335 от 23 мая 2019 года «О дополнительных мерах по ускоренному развитию отрасли производства строительных материалов», а также других нормативных документов, касающихся отрасли строительства.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологии Республики Узбекистан: II. «Энергетика, энергосбережение и ресурсосбережение».

Степень изученности проблемы. Важное значение в проблеме снижения расхода материалов и энергии в цементных системах, а также улучшения их свойств имеют исследования по модификации бетона минеральными наполнителями.

Основы применения таких добавок в многокомпонентных высококачественных бетонах были заложены известными зарубежными учеными В.И. Соломатовым, Г.И. Горчаковым, Ю.М. Баженовым, Л.И. Дворкиным, П.Г. Комоховым, А.В. Волженским, Ю.М. Буттом, И.А. Рыбьевым, Б.В. Гусевым, Э. Фрейсиным, А.А. Афанасьевым, Н.Б. Урьевым, С.М. Мчедлов-Петросяном, В.Г. Батраковым, В.Н. Выровым, А.Г. Комаром, А.С. Пантелеевым, В.Т. Ерофеевым, В.И. Калашниковым, В.И. Кондращенко, Т.И. Петровой, С.В. Шестоперовым, А.Е. Шейкиным, П. А. Ребиндером, В.Г. Батраковым, В.Б. Ратиновым, А.В. Ушеров-Маршаком, В.С. Рамачандраним, Б.Р. Фаликманом, В.М. Колбасовым, С.М. Рояком, В.В. Тимашевым, Т.В. Кузнецовой Х. Тейлором, М. Регуром, М. Коллепарди, Р. Кондо, Д. Ройом, К. Хаттором, М. Даймоном, R. Fere, G. Hintze, F. Loher, T. Thorvaldson, F.J. Hogan, L.U. Spellman, A. Walter, H. Uchikawa, Sh. Hanehara, F. Lallard, T.S. Do, A. Durecovic, S. Sarcar, I. Older, V. Yogendran, P. Aitchin, M. Cheurexu, E.G. Deharrard, V. Mechtherine, P.T. Santhosh, M. Schmidt, P. Kleingelhöfer, D. Frank, K. Fridemenn, P. Richard, и другими зарубежными учеными.

В Республике Узбекистан в разные годы научные исследования в сфере использования мелкодисперсных минеральных порошков в технологии многокомпонентных высококачественных бетонов проводили такие ученые, как А.И. Адилходжаев, А.А. Тулаганов, Э.У. Касимов, М.К. Тахиров, Н.А. Самигов, Б.Б. Хасанов, В.М. Цой, И.М. Махаматалиев, К.С. Умаров и др.

В выполненных ранее указанными авторами исследованиях, недостаточно рассмотрены вопросы повышения качества и долговечности бетонов и их устойчивости к возникновению коррозии цементного камня при

использование рядового цемента М400 и бинарных микронаполнителей на основе «кварц + карбонат».

В результате теоретических и экспериментальных исследований, особое внимание было уделено вопросам получения качественного и долговечного бетона устойчивого к агрессивным средам, с использованием местного сырья и рядового портландцемента М400.

